



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK
KO‘RSATKICHLARI VA UNGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR**

**ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ФАКТОРЫ ВЛИЯНИЯ**

**EFFECTIVENESS INDICATORS OF WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP
DEVELOPMENT AND INFLUENCER FACTORS**

Xusanova Zulfiya Rahmatullaevna

Andijon davlat universiteti, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Andijon viloyati statistika boshqarmasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YAHM), sanoat, qurilish va bandlik ko‘rsatkichlaridagi ulushiga doir rasmiy ma’lumotlari, shuningdek asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘rish sur’atlari asosiy tahlil obyekti sifatida olingan.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, samaradorlik ko‘rsatkichlari, ta’sir omillari, kichik biznes ulushi, Andijon viloyati, investitsiyalar, YAHM, sanoat.

В данной статье научно проанализированы показатели эффективности развития женского предпринимательства в Андижанской области и факторы, влияющие на них. В качестве информационной базы использованы официальные данные Управления статистики Андижанской области о доле малого бизнеса и частного предпринимательства в ВВП, промышленности, строи-тельстве и занятости, а также темпы роста освоенных инвестиций в основной капитал.

Ключевые слова: женское предпринимательство, показатели эффективности, факторы влияния, доля малого бизнеса, Андижанская область, инвестиции, ВВП, промышленность, занятость.

This article provides a scientific analysis of the efficiency indicators of women’s entrepreneurship development in Andijan region and the factors affecting them. The study is based on official data from the Statistical Department of Andijan Region on the share of small business and private entrepreneurship in GDP, industry, construction and employment, as well as growth rates of fixed capital investments.

Keywords: women’s entrepreneurship, efficiency indicators, influencing factors, small business share, Andijan region, investments, GDP, industry, employment.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayollar ishtirokidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat individual daromad manbai, balki yalpi ichki mahsulot (YAHM), sanoat ishlab chiqarish, qurilish va bandlik kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababli ayollar tadbirkorligining samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘lchash va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash — davlat siyosatining asoslanganligini ta’minlovchi muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan «Yangi O‘zbekiston» taraqqiyot strategiyasi doirasida [3] kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Andijon viloyati ushbu yo‘nalishda alohida o‘ringa ega: viloyatda

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

kichik biznes ulushi YAHMda 2024-yilda 70,1 foizni tashkil etib[1], bu ko‘rsatkich mamlakatdagi tadbirkorlik faolligining muhim hududiy indikatori hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoatda kichik biznes ulushi 2016-yildagi 50,4 foizlik cho‘qqidan 2024-yilda 32,1 foizga tushib, so‘ngra 2025-yilda 38,0 foizga biroz tiklangan.

Tadqiqotning ilmiy asosini shakllantirish va ishonchli xulosalarga erishish maqsadida bir-birini mantiqiy to‘ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanildi. Metodlarni tanlashda asosiy mezon sifatida ularning rasmiy statistik ma’lumotlar bilan ishlashga mosligi, samaradorlik ko‘rsatkichlarini miqdoriy baholashga yaroqliligi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmati e’tiborga olindi.

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida hujjatli tahlil metodi qo‘llanildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni (2022) [3], Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir SQ-876-IV-son Qaror (2024) [4] hamda gender kamsitishga qarshi O‘RQ-874-son Qonun (2023) [5] mazmunli o‘rganildi. Ushbu hujjatlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun yaratilgan huquqiy-me’yoriy asosni belgilab, samaradorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirishning rasmiy ramkasini tashkil etadi.

Tadqiqotning asosiy empirik qismida dinamik statistik tahlil metodi qo‘llanildi. Andijon viloyati statistika boshqarmasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHM, sanoat, qurilish va bandlikdagi ulushi bo‘yicha 2010–2026-yillarga oid rasmiy ma’lumotlari [1], shuningdek asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘sish sur‘ati bo‘yicha ma’lumotlari [2] bir-biri bilan qiyoslanib, samaradorlik tendensiyalari aniqlandi.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorligini baholashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi eng muhim indikator hisoblanadi. Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2010–2026-yillar davomida ushbu ko‘rsatkichlar turli yo‘nalishda o‘zgargan.

1-jadval.

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan, %) [1].

Yillar	YAHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Inv. o‘sish sur‘ati (%)
2010	69,1	15,5	95,0	81,0	94,6
2012	67,3	18,6	94,2	82,8	118,9
2014	71,3	23,4	93,2	83,7	100,7
2016	83,6	50,4	93,2	84,4	102,4
2018	75,1	21,2	96,9	81,7	113,7
2020	72,7	21,4	93,3	80,8	110,6
2022	69,5	22,4	93,8	80,2	116,5
2023	68,6	22,2	94,5	80,7	121,2
2024	70,1	32,1	92,8	81,3	139,4
2025	70,1	38,0	92,5	x	109,9
2026 (I chorak)	63,1	33,4	86,5	x	101,1

1-jadval tahlili quyidagi muhim tendensiyalarni ko‘rsatmoqda. Birinchidan, kichik biznes ulushi YAHMda 2010-yildan 2023-yilgacha pasayish tendensiyasini ko‘rsatgan — 69,1 foizdan 68,6 foizga tushib, eng past darajasiga yetgan, so‘ngra 2024-yilda 70,1 foizga biroz tiklangan.

Ikkinchidan, sanoat ko‘rsatkichi eng keskin swingni namoyish etgan: 2016-yilda 50,4 foizlik rekord cho‘qqiga erishib, 2018-yilda 21,2 foizga qulab tushgan va 2024-yilda yana 32,1 foizga ko‘tarilmoqda. Uchinchidan, qurilishdagi ulush barqaror yuqori — 92–97 foiz oralig‘ida — saqlanib kelgan, bu esa ayollar tadbirkorligi uchun qurilish sohasining doimiy imkoniyatlar manbai ekanligini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, bandlikdagi ulush 80–84 foiz oralig‘ida nisbatan barqaror bo‘lib, kichik biznesning ish o‘rinlari yaratishdagi barqaror rolini tasdiqlaydi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Investitsiyalar o‘shish sur‘ati ko‘pincha kichik biznes samaradorligining yetakchi (leading) indikator sifatida qaraladi. Andijon viloyati statistika boshqarmasining ma‘lumotlariga ko‘ra[2], tumanlar kesimida investitsiya o‘shish sur‘ati sezilarli farqlanmoqda. Ayollar tadbirkorligi uchun strategik ahamiyatga ega tumanlar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval.

Ayollar tadbirkorligi uchun muhim tumanlar bo‘yicha investitsiya o‘shish sur‘ati va samaradorlik indeksi (%) [2]

Tuman	2021	2022	2023	2024	2025*
Andijon viloyati (jami)	106,0	116,5	121,2	139,4	109,9
Andijon tumani	114,1	116,2	114,3	329,0	139,0
Oltinko‘l tumani	40,5	167,1	56,6	190,7	161,9
Paxtaobod tumani	81,0	128,6	105,1	167,5	155,6
Shahrixon tumani	117,7	181,3	109,7	104,7	172,8
Marhamat tumani	114,0	110,8	104,1	238,5	105,9
Baliqchi tumani	x	97,5	120,4	179,3	98,8
Ulug‘nor tumani	94,5	145,2	107,7	261,3	117,1
Bo‘ston tumani	112,7	98,5	78,3	413,3	124,3
Asaka tumani	x	69,9	51,6	351,9	36,0
Buloqboshi tumani	90,1	x	x	68,4	55,5
Izboskan tumani	96,6	98,4	102,7	219,4	103,6

*2025-yil yanvar–dekabr, dastlabki ma‘lumotlar.

2-jadval tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, investitsiya o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan tumanlar — Oltinko‘l (190,7%), Paxtaobod (167,5%), Andijon tumani (329,0%) — ayollar tadbirkorligi uchun qulay sanoat infratuzilmasiga ega. Biroq bu bog‘liqlik bir ma‘noli emas: Asaka tumanida 2024-yilda 351,9 foizlik rekord o‘shishdan so‘ng 2025-yilda 36,0 foizga keskin tushish kuzatilgan. Bu holat investitsiya sur‘atining yalpi o‘shishi bilan ayollar tadbirkorligining barqaror samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik yo‘qligini, samaradorlikka boshqa omillar ham ta‘sir etishini ko‘rsatadi. 1 va 2-jadvallar ma‘lumotlarini birgalikda tahlil qilish samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillarni to‘rtta guruhga ajratish imkonini beradi.

3-jadval.

Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar tizimi [8]

Omillar guruhi	Ijobiy ta‘sir	Salbiy ta‘sir
Moliyaviy omillar	Investitsiyalar 3 barobarga oshdi (2020–2024)	Bank kreditlari ulushi 6,8%→1,2% (tushdi)
Infratuzilma omillari	To‘qimachilik (Paxtaobod 167,5%), sanoat (Oltinko‘l 190,7%) zonalari	Zonalarda ayollar ishtiroki alohida hisoblanmaydi
Tashkiliy omillar	«Ayollar daftari» — 91 000 nafar; «Hamroh» — 3 000 loyiha	Konversiya atigi 2,2% (2011 korxona/91 000)
Bozor va sanoat omillari	Sanoat ulushi 2024→32,1%; 2025→38,0% o‘smoqda	2016→2018: sanoat ulushi 50,4%→21,2% keskin tushgan
Bandlik omillari	Bandlikdagi ulush barqaror 80-84% (2010–2024)	Qurilishdagi ulush 2026 I ch: 86,5%ga tushgan
Siklik omillar	2024: ko‘p tumanlarda rekord o‘shish ko‘rsatkichlari	2025: bir qator tumanlarda keskin pasayish (Asaka 36%)

3-jadval samaradorlikka ta‘sir etuvchi omillarning ziddiyatli xarakter kasb etishini ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, investitsiya hajmlari o‘sgan, sanoat ulushi tiklanmoqda, bandlik

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

barqaror; ikkinchi tomondan, bank kreditlarining ulushi keskin kamaygan, dasturlar konversiyasi past, siklik beqarorlik kuzatilmoqda. Bu ziddiyat o‘z-o‘zicha hal bo‘lmaydi — u samaradorlikni oshirishning kompleks mexanizmini talab etadi.

To‘rtta samaradorlik ko‘rsatkichi (YAHM, sanoat, qurilish, bandlik) o‘rtasidagi nisbat ayollar tadbirkorligining qaysi sohada kuchli, qaysi sohada zaif ekanligini ko‘rsatadi. 2010–2026-yillar oralig‘ida ushbu ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlari va o‘zgaruvchanlik darajalari quyidagicha:

4-jadval

Andijon viloyatida kichik biznes samaradorlik ko‘rsatkichlarining to‘liq dinamikasi (2010–2026, %) [1,2]

Yil	YAHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Investitsion sur‘at
2010	69,1	15,5	95,0	81,0	94,6
2011	69,8	18,4	93,1	82,4	120,9
2012	67,3	18,6	94,2	82,8	118,9
2013	68,4	20,3	90,0	83,3	94,6
2014	71,3	23,4	93,2	83,7	100,7
2015	78,5	32,0	93,9	83,8	105,1
2016	83,6	50,4	93,2	84,4	102,4
2017	82,1	34,5	93,8	84,2	114,3
2018	75,1	21,2	96,9	81,7	113,7
2019	72,4	17,7	94,9	82,1	129,0
2020	72,7	21,4	93,3	80,8	110,6
2021	74,6	27,2	95,2	80,7	106,0
2022	69,5	22,4	93,8	80,2	116,5
2023	68,6	22,2	94,5	80,7	121,2
2024	70,1	32,1	92,8	81,3	139,4
2025*	70,1	38,0	92,5	x	109,9
2026* (I ch)	63,1	33,4	86,5	x	101,1

*Dastlabki ma’lumotlar.

4-jadval to‘liq dinamikani ko‘rsatmoqda: 16 yillik davrda kichik biznes samaradorligi ko‘rsatkichlari bir tekis emas, balki sikllar bo‘yicha o‘zgargan. Eng muhimi, 2016-yil alohida ajralib turadi: YAHM 83,6%, sanoat 50,4% va bandlik 84,4% bilan barcha ko‘rsatkichlar maksimumga yetgan. 2023-yil esa eng past nuqta bo‘lgan — YAHM 68,6%, sanoat 22,2%. Biroq 2024-yildan boshlab tiklanish tendensiyasi kuzatilmoqda: sanoat ulushi 32,1 foizga ko‘tarildi, 2025-yilda esa 38,0 foizga yetdi.

Yuqorida tahlil qilingan samaradorlik ko‘rsatkichlari va omillar tizimi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni kompleks ko‘rinishda muhokama qilish maqolaning asosiy ilmiy hissasini tashkil etadi. Tadqiqot natijalaridagi asosiy paradoks shundaki: Andijon viloyatida kichik biznesning bandlikdagi ulushi (81,3%, 2024) va qurilishdagi ulushi (92,8%, 2024) yuqori va barqaror bo‘lsa-da[1], YAHMdagi ulush pasayish tendensiyasida (2016-yildagi 83,6% dan 2023-yilda 68,6% ga tushib, 2024-da 70,1% ga biroz ko‘tarilgan).

Bu paradoks ayollar tadbirkorligining samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarning mohiyatini ochib beradi. Birinchi va eng muhim omil — moliyaviy kirish imkoniyati. Investitsiyalar 2020-yildan 2024-yilgacha 3 barobarga oshgani[2] asosiy kapitalning shakllanishiga ko‘maklashgan, biroq bank kreditlarining ulushi 6,8 foizdan 1,2 foizga tushib[6], ayol tadbirkorlar uchun operatsion kapitalning tanqisligini keltirib chiqargan. Shu sababli YAHM ulushi ko‘tarilmayapti: yirik investitsiyalar asosan infratuzilmaga, qurilishga ketgan (qurilish ulushi barqaror 92–97%), kichik biznesning qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyati esa zaif qolmoqda.

Birinchi tavsiya — Bank kreditlarining ulushini oshirish maqsadida ayol tadbirkorlar uchun kafillik fondi tashkil etish. Hozirda 1,2 foizni tashkil etayotgan bank kreditlari ulushini[6] kamida 5–

7 foizga ko‘tarish kichik biznesning operatsion kapital bilan ta‘minlanishini va natijada YAHM ulushining o‘shishini ta‘minlaydi.

Ikkinchi tavsiya — Sanoat tebranuvdanligi muammosini hal etish uchun Paxtaobod va Oltinko‘l industrial zonalarida ayollar boshqaradigan korxonalar uchun uzoq muddatli shartnomalar tizimini joriy etish. Bu chora sanoatdagi 32,1 foizlik ulushni[1] barqarorlashtiradi va 2016-yilgi 50,4 foizlik cho‘qqiga qaytish uchun asos yaratadi.

Uchinchi tavsiya — «Ayollar daftari» tizimidagi 91 000 nafar xotin-qizning[4] tadbirkorlikka o‘tish konversiyasini kuzatuvchi va rag‘batlantiruvchi maxsus mexanizm joriy etish. Konversiyani 2,2 foizdan 10 foizga ko‘tarish hisobiga ayollar tadbirkorligining YAHM ulushiga qo‘shgan hissassi sezilarli oshadi.

To‘rtinchi tavsiya — Siklik beqarorlikni kamaytirish uchun investitsiya o‘shish sur‘atlari yuqori bo‘lgan tumanlarda (Oltinko‘l 190,7%, Paxtaobod 167,5%) [2] ayol tadbirkorlarni ko‘p yillik moliyalashtirish tizimlari bilan ta‘minlash va qurilishdagi yuqori ulush (92,8%)[1] asosida ayollar qo‘lida bo‘lgan qurilish materiallar ishlab chiqarish va hunarmandchilik klasterlarini tashkil etish.

Shunday qilib, Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari — YAHMdagi ulush (70,1%), sanoatdagi ulush (32,1%), qurilishdagi ulush (92,8%) va bandlikdagi ulush (81,3%) [1] — turli tendensiyalarni namoyon etmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun moliyaviy kirish imkoniyatini kengaytirish, sanoat barqarorligini ta‘minlash, dasturlar konversiyasini oshirish va siklik beqarorlikka qarshi mexanizmlar joriy etish zarur. Viloyatdagi barqaror investitsiya o‘shishi⁽²⁾ ushbu islohotlar uchun yetarlicha kuchli iqtisodiy zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan, %, 2010–2026). — andstat.uz
2. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (o‘shish sur‘ati, % da, 2010–2026). — andstat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining « 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmoni. 28.01.2022. — lex.uz/docs/-5841077
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»da belgilangan vazifalar ijrosi to‘g‘risida SQ-876-IV-son Qarori. 10.02.2024. — lex.uz/docs/-6814362
5. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘RQ-874-son Qonuni. 31.10.2023. — lex.uz
6. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (jami foizda, 2010–2026). — andstat.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. «Tadbirkor ayollar qaysi hududda ko‘proq faoliyat yuritmoqda?» 2024. — stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/56765
8. Rasmiy hujjatlar va statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.